FARG‘ONA VODIYSI ULAMOLARI SOVET HOKIMIYATINING "XUDOSIZLIK" SIYOSATIGA QARSHI (XX ASR 20-30-YILLARI)

Nabiyev Xumoyun Boqijon o‘g‘li
Farg‘ona davlat universiteti doktoranti

Annotatsiya:
Ushbu tezisda XX asrning 20–30-yillarida Turkiston (xususan, Farg‘ona vodiysi) hududida sovet hokimiyati tomonidan olib borilgan dinga qarshi radikal siyosat va "jangovar xudosizlik" kampaniyasining mohiyati tahlil qilinadi. Tadqiqotda sho‘rolar tizimining mahalliy aholi e’tiqodini, diniy muassasalarni va an’anaviy hayot tarzini yo‘q qilishga qaratilgan ma’muriy-mafkuraviy bosimlariga qarshi Farg‘ona vodiysi ulamolarining ko‘rsatgan qarshiliklari, ularning ijtimoiy-diniy faoliyatini saqlab qolish yo‘lidagi kurash usullari tarixiy manbalar asosida yoritib berilgan.

Tayanch so‘zlar: *Farg‘ona vodiysi, sovet hokimiyati, dinga qarshi siyosat, xudosizlik kampaniyasi, Turkiston ulamolari, islom, qatag‘on, mafkuraviy kurash.*

KIRISH

Rossiyada 1917 yil kuzida bolsheviklar hokimiyatga kelgach, ingliz imperialistlari joriy qilgan panturkizm, panislomizm tushunchalari qayta “tiriltirildi”. Turkiy xalqlar va musulmonlarga qarshi o‘ziga xos “salib urushi”ni olib borgan sovet Rossiyasining harbiy-siyosiy kuchlari sovet rejimiga qarshi qaratilgan isyon va norozilik chiqishlarini bostirish asnosida ozodlik harakati vakillariga “millatchi”, “bosmachi”, “panturkist”, “panislomist”, “xalq dushmani” kabi tamg‘alarni bosdi. [1].

O‘tgan asrning 20-30 yillarida sovet hokimiyati olib borgan ma’muriy buyruqbozlikka asoslangan ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy siyosat tufayli o‘lkadagi jamiyatning barcha tabaqalari, jumladan, diniy ulamolar xam jabr ko‘rdilar. Asrlar osha islom dini muhitida shakllanib kelgan qadriyatlarimiz oyoq osti qilindi, din ahliga nisbatan o‘ta shavqatsiz munosabatda bo‘lindi.

Sovet hukumati Farg‘ona vodiysida ham o‘z mafkurasini o‘rnatish uchun dinni batamom yo‘q qilish harakatiga tushdi. Bu jarayon bir necha bosqichda amalga oshirildi:

- «Jangovar xudosizlar ittifoqi»: 1920-yillarning ikkinchi yarmidan boshlab vodiyning yirik shaharlari (Qo‘qon, Andijon, Farg‘ona, Namangan) va qishloqlarida ushbu ittifoqning mahalliy bo‘limlari tuzildi. Ularning asosiy vazifasi — dahriylikni targ‘ib qilish, masjid va madrasalarni yopish edi.
- Diniy mulklarning musodara qilinishi: 1920-yillar o‘rtalaridayoq ulamolar va diniy muassasalarning asosiy iqtisodiy manbai bo‘lgan vaqf yerlari va mulklari davlat foydasiga musodara qilindi.
- Diniy sudlarning tugatilishi: An’anaviy qozixonalar va shariat sudlari taqiqlanib, ularning o‘rniga sho‘ro xalq sudlari joriy etildi.

Sovet hokimiyati dinga qarshi kurashda dinning sinfiy mohiyatini ochib berish siyosatini qo‘llab, bunda din to‘g‘risidagi marksizm-leninizm ta’limoti va partiya qarorlariga tayangan. Turli joylarda keng tashviqot ishlarini davom ettirish uchun 1925 yil aprelda “Butunittifoq xudosizlar uyushmasi” tuzildi. [2]. 1925-1947 yillarda faoliyat yuritgan Butunittifoq xudosizlar uyushmasi sovet hokimiyatining targ‘ibot-tashviqot o‘rgani hisoblanib, diniy muassasa va tashkilotlar faoliyatiga qarshi dahrilik siyosatining

bosh tashkilotchisi bo‘ldi. [3]. Xudosizlar uyushmasi o‘z faoliyatini yanada kuchaytirish maqsadida poytaxtdan chekka qishloqlargacha o‘z targ‘ibot-tashviqotlarini kengaytirganlar.

Ushbu uyushma o‘z faoliyati samaradorligini yanada oshirish uchun turli tillarda jurnal, gazeta va risolalar nashr eta boshladi. Ular ichida “Bezbojnik” (“Xudosiz”), “Ateist”, “Yuniy bezbojnik” (“Yosh xudosiz”), “Derevenskiy bezbojnik” (“Qishloqlik xudosiz”) kabilari ajralib turgan. “Kurashuvchan ateizm” jurnali ham dinni “fosh etish” matbuot markazlaridan biriga aylandi. [3].

Sovet hokimiyatining milliy o‘lkalarida zo‘ravonlik siyosatiga qarshi qurolli harakatlar boshlandi. Ushbu harakat 1918 yil fevral oyining oxirida “Turkiston Muxtoriyatining tor-mor qilinishi bilan boshlanganligi” shu kungacha deyarli barcha sovet tarixchilari va boshqa mualliflar asarlarida e’tirof qilinadi. [4].

1.Vodiy ulamolari sovet tizimining kuch ishlatish va ma’muriy bosimlariga qarshi faqatgina qurolli harakat (qo‘rboshilar harakati) orqali emas, balki yashirin va mafkuraviy usullar bilan ham qarshi turdilar. Masalan, Hujralar va yashirin maktablar (Xufyona ta’lim): Rasmiy madrasa va maktablar yopilgach, ulamolar o‘z uylarida yoki chekka qishloqlardagi yashirin hujralarda bolalarga diniy ta’lim berishni davom ettirdilar. Bu tizim keyinchalik sovet davrida islomiy ilm zanjiri uzilib qolmasligini ta’minladi.

2.Saylovlariga ta’sir o‘tkazish: 1920-yillarning o‘rtalaridagi mahalliy sovetlar saylovida ulamolar aholi o‘rtasida katta nufuzga ega ekanliklaridan foydalanib, o‘z fikrdoshlarini yoki dinga xayrixoh shaxslarni mahalliy boshqaruv organlariga saylanishiga erishishgan (bu holat arxiv hujjatlaridagi maxsus hisobotlarda ko‘p tilga olinadi).

3.Matbuot va va’zlardagi raddiyalar: Ulamolar sho‘ro matbuotida chiqayotgan dahriylik maqolalariga qarshi o‘z chiqishlarida, masjidlardagi va’zlarda xalqni o‘z e’tiqodini saqlab qolishga chaqirishgan.

1920-yillar oxiri va 1930-yillar boshlarida sovet hokimiyati ulamolarni guruh-guruh qilib qatag‘on qilishga o‘tdi. Vodiyning ko‘plab taniqli ulamolari, mudarris va qozilari «quloq» (boy-batrak sifatida) ro‘yxatiga kiritilib, mol-mulki musodara qilindi va oilasi bilan birga Sibir yoki Ukraina tuproqlariga surgun qilindi. NKVD tomonidan Farg‘ona vodiysida «millatchi va dindorlarning yashirin tashkilotlari» haqida soxta jinoiy ishlar ochildi. Oqibatda yuzlab ulamolar Oliy sud hukmi bilan otib tashlandi yoki GULAG lagerlariga jo‘natildi. 930-yil 22-fevralda boy va quloq bo‘lgani, «bosmachilar»ga ko‘maklashgani, «bosmachilar»ni yashirgani aybi bilan 11 kishi otuvga hukm qilingan. Ularning orasida o‘z davrining bilimdon ulamolari Shahobiddin Omonov, Mamadali Eshon Isoqov, Mulla Fozil Oqilov, Xolmatxo‘ji Mirzaliyev kabilar bo‘lgan[5].

1930-yil aprel oyida aksilinqilobiy tashkilot guruhlarida ishtirok etgani va aksilinqilobiy targ‘ibotchilikda ayblanib, 110 nafar diniy ulamolar qamoqqa olingan. Ular DGPU qamoqxonalarida qat’iy rejim ostida saqlanib, tergov qilingan. Tadqiqotda to‘g‘ri ko‘rsatilganidek, sovet hokimiyatining jazo idoralari respublikaning barcha viloyatlaridagi musulmon ulamolari hisoblanmish imom, eshon, so‘fi, qori, mudarris, mutavalli, shayx kabilarning aniq ro‘yxatini olish, ular haqida ma’lumot to‘plash haqida ichki ishlar nazorat organlari tomonidan taftish ishlarini ham olib borilgan. Farg‘ona viloyat xalq sudining 1940-yilda 13 ta diniy ulamolar ishi yuzasidan hukm qilgan qaroriga

asosan 8 kishi turli muddatli qamoq jazosiga hukm qilingan, 5 kishiga esa yengil jazo choralari ko‘rilgan.

1932-yilda “Bezbojnik” gazetasining oylik tiraji 3 ming nusxaga yetdi. Shu nomdagi jurnal tiraji esa 200 ming nusxada chop etila boshlandi. Ushbu muassasalarda dinga qarshi targ‘ibot markazlari, ateistlar burchagi, “Kurashchan xudosizlar” uyushmasining lektorlar guruhi faol ishlab turgan. “Kurashchan xudosizlar” uyushmasining mahalliy joylardagi tashkilotlarini saqlab turish uchun katta miqdordagi mablag‘ ajratilib, birgina 1937-yilda 712 ming 600 so‘m miqdorida mablag‘ ushbu maqsadga sarflangan. “Kurashchan xudosizlar” uyushmasi boshlang‘ich yachekkalari va ularning soni 1926-yilning yanvarida 2421 ta bo‘lsa, 1928-yilning iyul oyiga kelib 4654 taga ko‘paygan. Ularda faoliyat yuritgan a’zolar soni esa yuqoridagi yillarda 87 ming 33 tadan 216 ming 151 taga ko‘paygan[6].

1928–1940-yillarda diniy ulamolarning vakillari bo‘lgan yuzlab imom, so‘fi, qori, a’lam, mutavalli, baxshi, mudarris, shayx, qozi kabilar aybsiz tarzda qatag‘on qilingan. Ularga “aksilinqilobchilar”, “bosmachilarning g‘oyaviy rahnamolari”, “buzg‘unchilar”, “boy va quloqlar”, “sinfiy dushmanlar”, “sotsializm dushmanlari”, “sotqin va xoinlar” kabi asossiz ayblar qo‘yilib, ular o‘limga mahkum etildilar yoki uzoq yillarga ozodlikdan mahrum qilindilar.

1937-yil 27-oktabrda “uchlik” yig‘ilishining 54-sonli qarori bilan namanganlik yirik ulamo Nosirxontura Kamolxonturayev otuvga hukm qilindi[7].

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Kelajak soxtakorlikni kechirmas. O‘zbekiston Fanlar akademiyasi Tarix instituti yetakchi ilmiy xodimi, professor Qahramon rajabov bilan suhbat. Tafakkur. - B. 15.
2. Марголис А.Д., Притыкина Т.Б., Даниэль А.Ю. Советский государственный террор и сопротивление тоталитарному режиму: Хроника основных событий. 1917–1991. – СПб: Норма, 2017.
3. Salmonov A. O‘zbekistonda sovet hokimiyatining diniy siyosati: uydirma va tarix haqiqati. – T., Tafakkur, 2015.
4. Abdullayev R., Rahimov M., Rajabov Q. O‘zbekiston tarixi (1917-1991). O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Tarix instituti. O‘zbekistonning eng yangi tarixi masalalari bo‘yicha muvofiqlashtiruvchi-metodik markaz. – Toshkent “O‘zbekiston” NMIU, 2009.
5. Shamsutdinov R. Qishloq fojiasi: jamoalashtirish, quloqlashtirish, surgun. – Toshkent: Sharq, 2003. – B. 170.
6. Ateistik suhbatlar. Maqolalar to‘plami. – T., 1990. – B. 15.
7. Shamsutdinov R. Qishloq fojiasi: jamoalashtirish, quloqlashtirish, surgun... – B. 173.